



**TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI
KAMAYTIRISH MASALALARI**

Gulmurodov Bekzod Norbek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

e-mail: bekzodjongulmurodov777@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish masalalari o'rganilgan bo'lib ularning o'ziga xos xususiyatlarni tushunishga e'tibor qaratgan holda, moliyaviy institutlarda risklarni boshqarishga doir muhim masalarga qaratilgan. Tadqiqot muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlari, kredit bozorining sharoitlari, qarz oluvchiga xos xususiyatlarni va muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha takliflarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, tadqiqot muammoli kreditlarning kredit hajmi, turi va garovi kabi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqilgan va ularni kreditlardan ajratib turadigan holatlarga oydinlik kiritilgan. Shuningdek tijorat banklari uchun kreditlarni to'lamaslik xavfini kamaytirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim yondashuvlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, kredit amaliyoti, muammoli kreditlari, yuqori rentabellik, makroiqtisodiy omillar, kredit risklari, kredit shartnomalari.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются многогранные вопросы проблемных кредитов в коммерческих банках, уделяется особое внимание пониманию их специфических особенностей, акцентируя внимание на важных вопросах, связанных с управлением рисками в финансовых организациях. Исследование включает факторы, влияющие на возникновение проблемных кредитов, их экономические показатели, состояние кредитного рынка, характеристики заемщиков, а также регуляторные эффекты. Кроме того, в исследовании рассматриваются специфические характеристики проблемных кредитов, такие как объем кредита, вид и обеспечение, а также выделяются обстоятельства, отличающие их от кредитов. Кроме того, представлены важные подходы коммерческих банков к разработке эффективных стратегий по снижению риска невыплата кредитов.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, кредитная практика, проблемные кредиты, высокая доходность, макроэкономические факторы, кредитные риски, кредитные договоры.*

Abstract: *This article examines the multifaceted issues of non-performing loans in commercial banks, focusing on understanding their specific features, emphasizing important issues related to risk management in financial institutions. The study includes factors influencing the occurrence of problem loans, their economic indicators, the state of*



the credit market, characteristics of borrowers, as well as regulatory effects. In addition, the study examines the specific characteristics of problem loans, such as loan volume, type and collateral, and highlights the circumstances that distinguish them from loans. It also presents important approaches of commercial banks to develop effective strategies to reduce the risk of loan default.

Keywords: *commercial banks, lending practice, problem loans, high profitability, macroeconomic factors, credit risks, loan agreements.*

Kirish. Bugungi kunda bank tizimi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida jadal rivojlanayotgan bir vaqtda, bu sohada muammoli kreditlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq tashvish yuzaga kelmoqda. Muammoli kreditlarni keltirib chiqaradigan murakkab omillarni tushunish, shuningdek, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash risklarni samarali boshqarish va maqsadli choralarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining roli ahamiyati tobora oshgani sari ularning samaradorligi umumiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi, chunki sog'lom va daromadli bank sektori salbiy zarbalarga bardosh bera oladi hamda moliyaviy tizim barqarorligiga hissa qo'shadi. Hozirda mamlakatimizda "muammoli kredit" tushunchasi nazariy va amaliy olimlar tomonidan ancha ko'proq bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu, albatta, bejiz emas, chunki bugungi kunda respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelidagi muammoli kreditlarning ulushi, uni kamaytirish chora-tadbirlariga qaramay, juda yuqori foizni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Sohalar kesimida sanoatda – 3 trillion so'm, savdo va xizmat ko'rsatishda – 2,1 trillion so'm, qishloq xo'jaligida 1,8 trillion so'm, qurilishda – 978 milliard so'm, transport va kommunikatsiyada – 547 milliard so'mlik muammoli kreditlar vujudga kelgan.

Hududlar kesimida Jizzax, Samarqand Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining har biriga qariyb 1 trillion so'mdan muammoli kreditlar to'g'ri kelmoqda".

Adabiyotlar sharhi. Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining shakllanishi bilan tijorat banklarida muammoli kreditlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish zarurati paydo bo'ldi. Lavrushina, Yu.S., Nurzat O.A., Lykova N.M., Kovanyov A.A., Yashin M.V., Slavyanskiy A.V., Kuznitsov S.V nomlari bilan bog'liq xorijiy tadqiqotchilarning turli usullardan foydalangan holda bank tizimidagi muammoli kreditlar tahlilini o'rganishgan.

Muammoli kreditlarni boshqarish sohasidagi bir qator xalqaro tadqiqotlar muammoli kreditlarni boshqarishning optimal strategiyasini tanlashga bag'ishlangan bo'lib, bu tadqiqotlar Herring R.Dj., Greppet Dj.M, Karele G.V., Riddou T.Dj, Viatt S.B., Greaves R. kabi g'arb tadqiqotchilarining ishlarida o'z aksini topgan. .

T.M. Qoraliyev, U.A. Tuxtaboev, K.A. Muxamedjanov va boshqalar Tijorat banklaridagi kredit tavakkalchiligi va muammoli kreditlarni boshqarish va ularning sonini minimallashtirish bilan bog'liq muammolar haqida ma'lumot berildi.. Tadqiqotchi Kuznitsov S.V. (2008) o'z ilmiy ishida shunday deydi:-Muammoli kredit - bu qarz oluvchi



bank bilan tuzilgan shartnoma va kelishuvlarga muvofiq o'z majburiyatlarini to'liq bajara olmaydigan kreditdir, shuning uchun qarz oluvchining ssuda majburiyatlari bo'yicha muddati o'tgan to'lovlar to'lash xavfi ostida qoladi. Bank uchun qisman yoki to'liq yo'qotish.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarni undirish bo'yicha mavjud amaliyotni joriy etishning hozirgi holati tahlil qilinadi va bank kredit portfelining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiya, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklari sub'ektlarga nafaqat kredit berish, balki buxgalteriya hisobi orqali ushbu resurslardan kutilayotgan natijani nazorat qilishlari shart. Shuningdek, kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning paydo bo'lishi ularning hisobini xalqaro standartlar talablari asosida tartibga solish zaruratini tug'dirmoqda. Shu zaruratdan kelib chiqqan holda, tijorat banklarida kreditlar to'lash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar zaxiralarini to'lash jarayonlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, bankning risklarni boshqarishdagi maqsadi barcha aktivlarning qaytarilishini ta'minlash va mumkin bo'lgan tebranishlar chegaralarini toraytirishdir. Odatda, tavakkalchilik haqida gapirganda, ekspertlar birinchi navbatda kredit riskini, ya'ni kreditni to'lamaslik xavfini va unga hisoblangan foizlarni nazarda tutadilar. Riskning bu darajasiga mijozning tarkibi va uni baholashga katta ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri - mijozning kreditga layoqatliligini hisoblash usuli ta'sir qiladi. Kredit riskini va muammoli kreditlar sonini kamaytirish uchun mijozlarning kreditga layoqatliligini sinchkovlik bilan baholash va ularning risklarini boshqarishning samarali usulini tanlash kerak. Bu tijorat banklarining kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlarni undirish amaliyotini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi va bank tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Xususan, muammoli kreditlar va moliyaviy barqarorlik kuzatilganda makroiqtisodiy sharoitlar yanada muhimroq bo'lib, uning ta'siri yanada mazmunli bo'lib bormoqda. Xalqaro bank amaliyotlari shuni ko'rsatmoqdaki Markaziy banklarning moliyaviy barqarorlik hisobotlarida, bank sektorining moliyaviy barqarorligiga eng katta tahdid muammoli kreditlari hisoblanmoqda. Tijorat banklari nafaqat o'z moliyaviy faoliyatini nazorat etishi, balki moliya tizimining barqarorligiga hissa qo'shish uchun muammoli kreditlarni samarali boshqarish muhimligini tan olib kelmoqda. Bank sanoati iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun kreditlar berish orqali iqtisodiy o'sish va rivojlanishda katta rol o'ynaydi. Biroq, kredit berishda har qanday kreditorning asosiy tashvishi moliyaviy mablag'larni qay tarzda qaytarishdir. Muammoli kredit amaliyotlarida qarz oluvchilarning qarz shartlari bo'yicha defolt qilish ehtimolidan kelib chiqadi va natijada muammoli kreditlarning yuqori darajasiga olib keladi. Moliyaviy bozorlar hamda iqtisodiy sharoitlar o'zgarib borar ekan, bank sektori barqarorligini ta'minlash uchun muammoli



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



kreditlarni chuqur o'rganish zaruriyati ortib boradi. Ta'sir etuvchi omillar va o'ziga xos xususiyatlarning murakkab jarayonlarini ochib berish orqali ushbu tadqiqot manfaatdor tomonlarni, jumladan, tijorat banklari, tartibga soluvchilar va iqtisodchilarni muammoli kreditlar ko'rinishiga qarshi moliyaviy tizimning chidamliligini mustahkamlash uchun bebaho tushunchalar bilan jihozlashga harakat qiladi.

Muammoli kreditlarning paydo bo'lishi kredit riskining ta'siri bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida bank qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq to'lay olmasligidan va bank bu bilan bog'liq zarar ko'rishidan xavotirda. Bunday qarz oluvchilarga qarz berish natijasida bir qancha yuqotishlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun bank amaliyotida muammoli kreditlar ko'pincha past sifatli kreditlar deb ataladi. Muammoli kreditlarning bunday talqini muammolar natijasida kelib chiqadigan yo'qotishlarga qaratilgan. Biroq, har bir muammoli kredit zarar bilan tugamaydi. Bankning vazifasi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish yoki minimallashtirishdir. Muammoli kreditlarni boshqarish sohasidagi xorijiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, samaradorlikning eng samarali strategiyasi mijoz bilan strategik hamkorlik doirasida amalga oshiriladigan qiyinchilikka duch kelgan qarz oluvchini moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan muammoli kreditlarni boshqarish strategiyasidir.

Markaziy bankning 2024-yil 1-noyabr holatiga bergan ma'lumotlariga ko'ra tijorat

Davlat banklari orasida faqatgina Agrobankda (-548,9 mlrd so'm) kredit qoldig'i kamaygan. Qolgan davlat banklarining barchasida kreditlar qoldig'i ortishi hisobiga davlat banklari kredit portfeli 1,9 trln so'mga ortgan. Xususiy va boshqa banklarning jami kredit portfeli esa 2 trln 927 mlrd so'mga oshgan. Boshqa banklar orasida jami 6 ta bankda kredit qoldig'i kamaygan. Kredit portfelda eng katta pasayish Ipoteka bank (-143 mlrd so'm)da kuzatilgan.

Muammoli kreditlar (NPL) qoldig'i bank tizimi bo'yicha oy davomida 433 mlrd so'mga ko'paygan va 22,4 trln so'mdan oshgan. NPL qoldig'i davlat banklarida 21 mlrd so'mga ko'paygan bo'lsa, boshqa banklarda o'sish 412 mlrd so'mga teng bo'lgan.

Xususan, muammoli kreditlar o'sishi asosan O'zmilliybank (+270 mlrd so'm), Madad Invest bank (+212 mlrd so'm), Kapitalbank (+127 mlrd so'm) hisobiga to'g'ri kelgan. Noyabr oyi davomida muammoli kreditlarni nisbatan ko'proq so'ndirgan bank Biznesni rivojlantirish banki (-113,6 mlrd so'm) bo'lgan.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR




Kredit portfeldagi NPL ulushi 4,27 foizni (oylik o'zgarish +0,04 foiz) tashkil qilgan.

Тижорат банкларининг муаммолли кредитлари (NPL) тўғрисида 2024 йил 1 декабрь ҳолатига маълумот

				млрд. сўм
№	Банк номи	Кредит портфель	Муаммолли кредитлар (NPL)	Муаммолли кредитларнинг жами кредитлардаги улуши
Жами		525 887	22 447	4,3%
Давлат улуши мавжуд банклар		363 939	14 982	4,1%
1	Ўзмицлийбанк	107 289	3 621	3,4%
2	Ўзсаноатқурилишбанк	63 996	1 904	3,0%
3	Агробанк	59 641	2 135	3,6%
4	Асака банк	38 206	1 798	4,7%
5	Халк банки	30 045	1 517	5,0%
6	Бизнесни ривожлантириш банки	22 696	2 275	10,0%
7	Микрокредитбанк	17 703	1 066	6,0%
8	Турон банк	12 501	367	2,9%
9	Алока банк	11 862	299	2,5%
Бошқа банклар		161 948	7 465	4,6%
10	Ипотека банк	34 437	3 875	11,3%
11	Капитал банк	30 937	1 403	4,5%
12	Ҳамкор банк	18 994	342	1,8%
13	Ипак йўли банк	14 205	203	1,4%
14	Ориент Финанс банк	12 330	156	1,3%
15	Инвест Финанс банк	7 585	131	1,7%
16	Тибиси банк	6 885	158	2,3%
17	Давр банк	6 834	104	1,5%
18	Анор банк	6 678	170	2,5%
19	Траст банк	5 617	214	3,8%
20	Тенге банк	3 847	108	2,8%
21	Азия Альянс банк	3 723	90	2,4%
22	ЎзҚДБ банк	3 292	0,0	0,0%
23	Зираат банк	2 058	55	2,7%
24	Универсал банк	1 492	26	1,8%
25	Гарант банк	839	136	16,2%
26	Ҳаёт банк	833	0,0	0,0%
27	Мадад инвест банк	334	258	77,3%
28	Пойтахт банк	286	0,0	0,0%
29	АВО банк	248	34	13,9%
30	Апекс банк	192	0,0	0,0%
31	Янги банк	140	0,1	0,1%
32	Ўзум банк	78	0,0	0,0%
33	Октобанк	49	0,0	0,0%
34	Смарт банк	20	0,0	0,0%
35	Эрон Содерот банк	16	1,5	9,0%
36	Евроосиё банк	0,0	0,0	0,0%

1-Расм. Тижорат банкларининг муаммолли кредитлари (NPL) то'ғ'рисида 2024-йил 1-декабр ҳолатига ма'лумот



2-rasm. Muammoli kreditlarni samarali boshqarish yo'llari

Muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar

Kreditlar sifatini yaxshilash: Kredit berish jarayonida mijozlarning to'lov qobiliyatini chuqur tahlil qilish, to'g'ri kafolatlar talab qilish va biznes-rejalarni real baholash.

Monitoring tizimini kuchaytirish: Kredit berilganidan keyin muntazam ravishda qarzdorlarning moliyaviy holatini monitoring qilish muhim. Shu bilan birga, muammoli kreditlar vujudga kelishidan oldin ularni aniqlash va profilaktika choralarini qo'llash zarur.

Kredit portfelini diversifikatsiya qilish: Risklarni kamaytirish uchun banklar turli soha va sektorlarga kredit berishni ta'minlashi kerak.

Muammoli kreditlarni qayta tuzish: Qarz oluvchilarga o'z moliyaviy holatini tiklash uchun moslashuvchan shart-sharoitlar yaratish, masalan, muddatlarni uzaytirish yoki foiz stavkalarini qayta ko'rib chiqish.

Yuridik choralarni qo'llash: Zarurat bo'lganda qarzdorlar bilan sud tartibida ishlash va kafolatlarni amalga oshirish.

Texnologiyalarni joriy qilish: Sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalar yordamida risklarni baholash va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish.

Xulosa. Mazkur maqolaning maqsad va vazifalariga muvofiq tijorat banklarida muammoli kreditlarni undirish va sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui quyidagi harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Banklarning kredit portfelini va loyihalar sifatini yaxshilash chora-tadbirlari;
2. Banklarning kredit portfellarida mavjud bo'lgan kreditlarga stress-testlar amaliyotini qo'llash imkoniyatlari;
3. Muammoli kreditlarni tasniflash bo'yicha batafsil tahlil qilgan holda kredit portfelining sifatini ta'minlashning samarali mexanizmini ishlab chiqish;



4. Tijorat banklarining kredit portfelli ro'yxatga olinganidan keyin qiyin ahvolga tushib qolgan har bir mijozning moliyaviy imkoniyatlarini tiklash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

Shunday qilib, ushbu maqolaning tadqiqotida shakllangan amaliy harakatlar asosida qarz oluvchilarning muammoli kreditlarini boshqarish tizimini tashkil etishga ilmiy-uslubiy yondashuv taklif qilindi. Bunda muammoli kreditlarni erta aniqlashga alohida e'tibor qaratilib, muammoli kreditlarni boshqarish jarayoni samaradorligini oshirish imkonini beradigan barcha tavsiyalarni bank amaliyotida qo'llash imkoniyati yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

3. Rozanov A. (2015) Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015.№10.P.275-295

4. Вавулин Д.А. (2016) Негосударственные пенсионные фонды: место в системе обязательного пенсионного страхования 2016. - № 2. – С.162-176

5. Willis Towers Watson. Global Pension Assets Study 2020. Executive Summary. 2020.

6. Tursunov, J. (2018). SPECIAL FEATURES OF PENSION SYSTEM IN UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL PRACTICE. International Finance and Accounting, 2018(3), 19.

7. OECD (2021), Pensions at a Glance 2021: OECD and G20 Indicators, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/ca401ebd-en>.